

SURXON ETNOGRAFIYASI

*Xalilova Mohigul Baron qizi*

*Termiz Davlat muzey-qo'riqxonasi Etnografiya bo'lim mudiri*

**Annotatsiya:** Dunyoning AQSh, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Misr va Xitoy kabi rivojlangan mamlakatlardagi yirik ilmiy tadqiqot markazlarida dunyo etnografiyasi, etnologiyasi, antropologiyasini tadqiq qilinayotgan mavzularidan biri xalqlarning hayotidagi barcha jarayonlar emas, balki etnos madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari hisoblanib, unda xalqning milliy o'zligini anglashi va etnoslararo aloqalarni mustahkamlash imkonini beruvchi milliy siyosatga alohida e'tbor qaratilmoqda.

**Kalit so'zlar:** Qo'ng'irot, turar-joylar, o'tov, kiyim-kechak, chakmon, olacha, kebanak

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda tom ma'noda siyosiy va madaniy taraqqiyotida tub ijobjiy o'zgarishlar sodir bo'lib, O'zbekistonda ochiq va tadrijiy rivojlanuvchi yaxlit ijtimoiy tizim yaratildi. Bu esa o'z navbatida milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi shakllanayotgan bir paytda o'tmish ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy - ma'naviy madaniyatimiz, beba ho qadimiy tariximiz, urf - odat, an'ana va marosimlarimiz buni yaqqol isbotidir. Xalqimiz tarixini o'rganish, uning kelib chiqish etnoslarini ilmiy tahlil etish, tarix va etnografiya fani uchun zarur manbalarni topish, uni xolisona tahlil etish bugungi dolzarb masaladir. Markaziy Osiyo aholisini qadimdan turli etnik urug'lar tashkil etib, ularning moddiy va ma'naviy madaniyati o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Surxondaryo etnografiyasining turli jahbalarini ilmiy tarixiy jihatdan tadqiq etish, hamda o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, uni to'laroq yortish imkonini beradi. Xalqimiz mustaqillikka erishgach, milliy - ma'naviy qadriyatlarimizga bo'lgan e'tiborning kuchayishi bu fanning dolzarbligidan dalolat berib, har jihatdan ilmiy o'rganish dolzarbligini ko'rsatmoqda. Shu jihatdan mazkur fanni o'rganish nafaqat fan rivoji uchun, balki xalqda vatanga muhabbat, vatanparvarlik hissini o'yg'otish hamda rivojlantirishda o'ziga xos o'rni bor. Jamiyatning turli rivojlanishi bosqichlarida va turli mintaqalarda etnografiya o'zining tarixan shakllangan xususiyatlariga bog'liq bo'lgan. Shu jihatdan etnografiya fani turli davrlardagi xususiyatlarini o'rganish har bir jamiyatda qay tarzda rivojlanganligi hamda rivojlanish bosqichlarini aniqlashda muhim ilmiy, ijtimoiy va amaliy ahamiyatga egadir.

O'zbek xalqi etnografiyasini tarixiy - etnografik jihatdan har tomonlama alohida ob'ekt sifatida mukammal o'rganish, respublika aholisining moddiy va ma'naviy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlariga bir qadar aniqlik kiritish imkonini beradi. Surxon vohasi qadim tarixga ega yurt sanaladi. Aynan davlatchiliginizning asoslarining shakllanishida ham voha muhim o'rin egallaydi. Surxon vohasi ayni paytda betakror tabiat, moddiy boyliklari hamda aholisining o'ziga xos turmush tarzi, urf - odatlari va an'analarining lokal xususiyatlari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham "Surxondaryo - Etnografik makon" ekanligiga alohida e'tibor berishning sababi Surxon vohasi aholisi fe'l atvori, turmush tarzi, urf - odat va an'analarini mamlakatimizning boshqa mintaqalaridan o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi. Shu boisdan Surxon vohasi etnografiyasini o'rganish nihoyatda dolzarb mavzu ekanligidan dalolat beradi.

Surxon vohasi hududi qadimiy tarixga ega bo'lib, ko'plab manbalarda voha o'tmishini aks ettiruvchi voqe - hodisalar haqida fikr yuritilgan. O'tmish madaniyatini yaratgan ajdodlarimiz, ularning ijtimoiy - iqtisodiy turmush tarzi aks ettirilgan yilnomalar, tarixiy, adabiy - badiiy asarlar, dostonlar, rivoyatlar, xalq og'zaki ijodiyoti namunalari saqlanib qolgan. Olib borilgan arxeologik qazish ishlari davrida bu hududdan Yunon - Baqtriya tanga pullari, O'rta Osiyoga xos xudolar va sanamlar (Anaxit, muqaddas hayvonlarning suratlari, san'at buyumlari, aslaha -

anjomlarni bezash uchun ishlataladigan taxtacha - falarlar, sanamlarning suratlari o‘yilgan oltin tovoqlar) dan iborat topilmalar aniqlandi. Miloddan avvalgi I - ming yilliklar oxiri milodimizning boshlarida Surxon vohasida yashagan qabilalar, urug‘lar haqida, ularni mahalliy o‘troq, yarim ko‘chmanchi hamda ko‘chmanchi urug‘lardagi madaniy hayat xususida bir qator ilmiy asarlar yaratilgan. Mashhur alloma Abu Rayhon Beruniyning Tohariston hududidagi xalqlarning tarixi, joylashuvi, shaharlari haqidagi asarları, yirik turkshunos olim Mahmud Qoshg‘ariyning (XI asr) «Devonu lug‘atit turk» asarida qayd qilingan turkiy urug‘larning ma’lum qismi Tohariston hududida istiqomat qilib, katta siyosiy nufuzga ega ekanligi borasidagi fikri, yetuk alloma, tarixchi Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida turkiy va fors - tojik xalqlarining e’tiqodlari, bayramlari to‘g‘risidagi manbalari bebafo ilmiy xazinadir. Shuningdek, Rashididdin, Mirzo Ulug‘bek, Abulg‘ozzi Bahodirxon va boshqa olim hamda tarixnavislarning asarları o‘ziga xos o‘ringa ega. O‘zbekiston hududida xususan, Surxon vohasiga Chor Rossiyasidan turli maqsadlar bilan kelgan o‘lkashunoslar, olimlar va rus ma’murlarining asarları, yozma yodgorliklari muhim manbalar guruhiga kirib, aholining iqtisodiy siyosiy hayoti, etnik tarkibi shuningdek, moddiy va ma’naviy madaniyati haqida to‘xtalib o‘tganlar. N.Xanikov 1841 - 1842 yillarda Butenov missiyasi bilan Buxoro amirligida bo‘lib, Buxoro amirligi aholisining etnik tarkibi, antropologik xususiyatlari, moddiy va ma’naviy madaniyati xususan, turar joylar, kiyim - kechagi va taomlari, shuningdek urf - odatlari, ijtimoiy turmushi haqida to‘xtaladi. 1863 yilda Samarqand, Buxoro, Xiva hamda boshqa shaharlarni o‘rgangan major olimi A.Vamberi o‘zbek urug‘larini o‘rganib, 32 ta o‘zbek urug‘i ro‘yxatini tuzadi. Shuningdek, mahalliy aholining kiyim - kechagi. Oziq - ovqati, urf - odatlari, diniy marosimlari hamda an’anaviy xalq o‘yinlari xaqida yozib qoldirgan. O‘zbeklarning etnik tarkibi massalasida mulohaza yuritgan A.D.Grebenkin Zarafshon vohasida yashovchi tojik va o‘zbeklar xususan, mang‘it, ming, nayman, yuz, jaloir, tuyoqli va qirq kabi urug‘larning kelib chiqishi, antropologik xususiyatlari, moddiy madaniyati hamda an’anaviy xo‘jaligini o‘z asarlarida yoritib bergen. Buxoro amirligida bo‘lgan P.I.Nebolsin Buxoro amirligining iqtisodi, siyosiy hayatini yoritish bilan birga moddiy madaniyati masalalariga ham e’tibor berib o‘tgan. N.A.Maevning 1875 va 1878 yillarda o‘tkazilgan Hisor ekspeditsiyasi ma’lumotlari asosida yozilgan asarlarida Surxon vohasi hududida yashovchi qo‘ng‘iroq, do‘rmon, qatag‘on, yuz, marqa, loqay hamda tojiklarning etnik tarkibi, voha aholisining geografik joylashishi, turar joylari, kiyimlari, taomlari, shuningdek, an’anaviy xo‘jaligi xaqida etnografik ma’lumotlar bor. Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekistonning janubiy tumanlari bo‘lgan Surxon vohasi aholisining moddiy va ma’naviy madaniyati, xo‘jalik mashg‘uloti, aholisining soni, etnik tarkibi hamda aholining kasb - xunarmanchilagini o‘rganishda XIX asr oxirida Chor Rossiyasining harbiy ofitserlari tomonidan bajargan ishlari ham muhim ahamiyatga ega. XX asr boshlarida Markaziy Osiyo bo‘ylab sayyoxat qilgan D.N.Logofet o‘z taassurotlari asosida yozgan ikki jildli asar nashr ettirdi. Muallifning asarlarida Buxoro amirligi hududidagi aholilarning etnik tarkibi, turar joylari, qishloq va uylari, xo‘jaligi hamda turmush sharoiti to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Akademik V.V.Bartold o‘zbeklar va Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, geografiyasi, madaniyati va etnografiyasiga oid 400 dan ortiq ilmiy ishlar yozdi. Jumladan, qadimiy Surxondaryo hududi, Tohariston, Chog‘aniyon, Termiz hamda Amudaryo qirg‘oqlari va bu yerda yashovchi xalqlar haqida muhim izlanishlar olib bordi. O‘rta Osiyon rayonlantirish bo‘yicha maxsus komissiya 1924 yil sentabrdan 1925 yil fevralgacha I.B.Magidovich rahbaligida ish olib borib, O‘rta Osiyo respublikalarining ma’muriy iqtisodiy aholi ro‘yhati hamda statistik ma’lumotlar to‘plandi. Yetuk tarixshunos olim O‘zR.FA. faxriy akademigi S.P.Tolstov asarlarida qadimgi davrda istiqomat qilgan aholining madaniyati, o‘scha davrdagi qishloq va shaharlarda yashagan aholining etnogenezi,

qadimiy o‘zbek qabilalari, hamda yirik sug‘orish tarmoqlari haqida to‘xtalgan. Akademik Ya.G‘.G‘ulomov O‘zbekiston tarixi, qolaversa, arxeologiya va etnografiya sohasida sermahsul ilmiy ijod qilib, o‘lkamizda sun‘iy sug‘orishning vujudga kelishi, uning takomillashib rivojlanish tarixini o‘rganish, shuningdek, moddiy va ma’naviy madaniyatini o‘zida aks etgan ko‘pgina ilmiy tarixiy asarlar yaratdi. Tarixchi, etnograf olimlardan L.V.Oshanin, A.I.Yarxo, K.V.Trever, A.Yu.Yakubovskiy, B.D.Grekov kabilar o‘zbek xalqining etnogenezi, o‘zbeklarning urug‘ qabilachilik an‘analari, moddiy - maishiy turmushi, madaniyati, o‘zbek millatining shakllanishi, antropologik tarkibi masalalarida ko‘pgina tadqiqotlar olib bordi. Lekin biz tadqiq etgan hudud haqida fikr yuritilmagan. XX asrning 1950 - yillarda Surxon vohasi aholisining antropologiyasini tarixiy etnografik jixatdan o‘rgangan K.Najimovning ilmiy tadqiqotlarida voha aholisining antropologik tarkibi, etnogenezinining ba’zi bir masalalari hamda ma’lum doirada chuqur bo‘lmasa - da moddiy va ma’naviy madaniyati masalalariga e’tibor bergan. Janubiy Tojikiston va O‘zbekiston hududlarida etnografik tadqiqotlar olib borgan B.X.Karmisheva bu hudud aholisining etnik tarkibi, o‘zbek qorliq urug‘ining turar joylari shuningdek, bu hudud aholisining chorvachilik xo‘jaligi va boshqa masalalariga e’tibor bergan. M.G.Vahobovning «O‘zbek sotsialistik millati» asarida o‘zbek xalqining etnogeneziga oid masalalarga to‘xtalib, o‘zbek xalqining shakllanish jarayoni, rivojlanishi, etnik tarkibining kengayib borishi haqida asosli ma’lumotlar bo‘lsa - da, lekin mavzu marksizm - leninizm g‘oyalari asosida talqin etilgan. O‘zbek xalqining shajara va shevalariga bag‘ishlangan X.Doniyorovning monografiyasida Surxon vohasi aholisining ayrim urug‘lari etnik holati va shevalariga to‘xtalib o‘tgan. Tarixchi-etnograf N.G.Borozna Bobotog‘ va Kofirnixon vodiysi o‘zbek - do‘rmonlarining oilaviy turmushi, madaniyati haqida to‘xtalib, ularning xo‘jaligi, turar joylari, kiyimlari va taomlari masalasini yoritgan. Ayrim tadqiqotchilar asarlarida ilk o‘rta asrlar davridagi Toharistonning moddiy madaniyati yoritilgan. Tarixdan ma’lumki, Surxon vohasi V asr - VIII asrning birinchi yarmida Tohariston tasarrufida bo‘lgan. Jumladan, t.f.n. T.J.Annaevning tadqiqotlarida Surxon vohasida aholining turar joylari, kulolchiligi xususida to‘xtalgan. Folklorshunos olimlardan H.Zaripov, H.Olimjon, V.M.Jirmunskiy, M.Alaviya, M.Afzalov, B.Sarimsoqov, T.Mirzaev, G‘.Jalolov, M.Murodov hamda A.Ergashev kabilar o‘zbek xalqi og‘zaki ijodiyotidagi dostonlar, rivoyatlar, ertaklar, qo‘shiqlar, maqol va topishmoqlarni o‘rganib, ilmiy tahlil etib nashr qilganlar. O‘zbekiston aholisining antropologik tarkibini o‘rganishda T.K.Xodjaevning mongoloid, yevropoid irqiga mansub etnik guruhlarni tadqiq etish hamda bu boradagi ilmiy xulosalari fan uchun muhim ahamiyatga ega. Yetuk olim T.Nafasov ilmiy faoliyatida o‘zbek va turkiy xalqlar etnik tarixini tadqiq etib, uni toponomik tushunchalar bilan asoslab, toponimshunos olim ushbu tadqiqotga oid o‘z ilmiy fikrlarini ko‘rsatib o‘tgan. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Janubiy O‘zbekiston tumanlarida aholi turar joylarining taraqqiy etishi darajasini o‘rgangan tarixchi - etnograf O.I.Ibragimov mavzuni yoritishda o‘troq aholi, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholilarning turar joylariga hamda uylarning qurilish uslublariga e’tibor bergan. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin o‘tgan qisqa davr ichida ijtimoiy - siyosiy hayotning barcha sohalarida tub ijobjiy o‘zgarishlar qilishga erishildi. Xususan, milliy mafkura hamda milliy istiqlol g‘oyasi shakllanayotgan bir davrda o‘tmish ajdodlarimizning tarixi, etnik tarkibi, shuningdek moddiy va ma’naviy madaniyatini ilmiy tahlil qilish borasida ko‘pgina ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Taniqli tarixchi - etnograf olimlarimizdan B.Ahmedov, A.Asqarov, K.Shoniyozov, Z.Orifxonova, I.Jabborov, S.Tursunov, X.Ismoilov, O.Bo‘rievlarning bu boradagi ilmiy tadqiqotlari o‘ziga xos o‘ringa ega. Akademik B.Ahmedov O‘zbek xalqining xususan, turkiy xalqlarning etnik kelib chiqishi masalasini yoritar ekan Markaziy Osiyo hududlarida turkiy xalqlarning qadimdan yashab siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy jihatdan yuqori mavqedan bo‘lganliklarini ta’kidlaydi. Tarixshunos

olim akademik A.Asqarovning ilmiy ishlari, maqolalari o‘zbek xalqining kelib chiqishi hamda moddiy va ma’naviy madaniyati tarixini o‘rganishda nihoyatda qimmatlidir. Olimning yaratgan tarixiy, etnografik, arxeologik asarlarida Surxon vohasi, qolaversa tadqiq etilayotgan mavzu yuzasidan ham ko‘pgina ilmiy tushunchalar mavjud. O‘zbekiston aholisining etnik tarkibi moddiy va ma’naviy madaniyati masalasida taniqli etnograf olim, akademik K.Shoniyozov yaratgan ilmiy asarlar o‘ziga xos o‘ringa ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Сухарева О.А. Художественные ткани // Народное декоративное искусство Советского Узбекистана. Текстиль. – Ташкент, 1954.- С. 94.
2. Сухарева О.А. Древние черты в формах головных уборов народов Средней Азии // ТИЭ.-М.-Л., 1954.Т.XXI. - С. 250-289.
3. Задыхина К.Н., Сазонова М.В. Мужская одежда узбеков Хорезма конца XIX-начала XX в. // Костюм народов Средней Азии. -М., 1979.- С. 151-168.
4. Шаниязов К., Исмаилов Х.И. Этнографические очерки материальной культуры узбеков конца XIX – начало XX в. – Т.: Фан, 1981. – С. 45.
5. Исмаилов Х. Традиционная одежда арабов Каракалпакской области УзССР // Костюм народов Средней Азии. – М., 1979. – С. 230.
6. Кунижаева Л. З. Материальная культура прикладное искусство осетин. – М., 1973. – С. 19 – 20.
7. Tursunov N.N. Janubiy Surxon vohasi etnografiyasi... – B. 76.
8. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Boysun tumani Inkobod, Gummatak qishloqlari. 2022 yil.
9. Dala yozuvlari. Sherobod tumani Kampirtepa qishlog‘i. 2021 yil.
10. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Xomkon qishlog‘i. 2022 yil.
11. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Xomkon, Xo‘jaqiy qishloqlari. 2021 yil.